

**LEKSIK KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH VA**

**MUSTAHKAMLASH USULLARI**

**Dilfuza Babanova Abdugafarovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani №67-sonli

sanatoriylar turidagi ixtisoslashtirilgan davlat maktab –internati o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada leksik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va mustahkamlash usullari haqida so‘z boradi. Umumta’lim maktablarida talaffuzga o‘rgatishning maqsad va vazifalari. Ma’lumki, har qanday xorijiy tilni o‘rgatish shu tildagi tovushlarini, so‘zlarni, jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalarini o‘rgatishdan boshlanadi. Chunki talaffuzni o‘rganmasdan, biron bir xorijiy tilda gaplashish, eshitib tushunish, o‘qish va yozishga o‘rganish juda qiyin.

**Kalit so‘zlar:** leksik, ko‘nikma, malaka, usul, maktab, talaffuz.

**Kirish**

Tanlangan leksika umumta’lim maktabining leksik-minimumini tashkil qiladi hamda har bir sinf uchun o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan leksik minimum ajratiladi. Tanlab olingan leksika asosida dasturlar va o‘quv qo‘llanmalari yaratiladi. Muayyan mavzularni o‘rgatishda shu mavzu asosida yaratilgan matn 6-10 tagacha yangi so‘zlardan iborat bo‘lishligi belgilab qo‘yilgan. Mavzuni o‘zlashtirish vositasi bo‘lgan bunday yangi so‘zlar orqali fonetik, grammatik, va kommunikativ mashqlar tuziladi[12]. Maktab dasturiga ko‘ra leksik minimum a) sinflarga; b) dastur mavzulariga; v) paragraflarga; g) mashqlarga; d) leksikaning qiyinligiga qarab taqsimlashni taqqozo etadi. Bo‘nday taqsimlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmay, balki o‘quvchining ishi, sinfi, dastur talabi, o‘rgatiladigan nutq faoliyatining turi, kommunikativ xarakteri, o‘qitish bosqichini hisobga olgan holda amalgaoshiriladi[1].

Umumta’lim maktabi leksik minimumini 3 guruhga ajratish mumkin: 1. Aktiv leksika, yoki reproduktiv leksika, ya’ni o‘quvchilar tomonidan nutq faoliyatining barcha turlarida ishlataladigan so‘zlar.

2. Passiv leksika–retseptiv nutqda, ya’ni tinglab tushunishda nutq vaziyatidan va o‘qishda kontekstdan ma’nosi anglanadigan so‘zlar. 3. Potentsial leksika yoki passiv leksika. Passiv leksikaga ma’nosi osongina anglanadigan baynalmilal so‘zlar, tanish negzlar asosida qo‘sishchalar orqali yasalgan yangi so‘zlar kiradi. Odatda bunday leksikani o‘rgatishga ko‘p vaqt sarf qilinmaydi.

2. Leksik ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash usullari. Leksik birliklar orqali ko'nikma va malakalarini shakllantirish va mustahkamlashni an'anaviy metod va usullarda, aralash metod va usullarda va kommunikativ metod va usullar orqali tashkil qilish mumkin[13]. An'anaviy o'qitish metodikasida yangi leksikani tushuntirish va amalda qo'llash o'quvchilarining uch bosqichli faoliyatini tashkil qilish va boshqarishniorqali uyuştiriladi (№28 slayd namoyish qilinadi):

1–bosqichda o'qituvchi yangi so'zlarni tushuntiradi.

2–bosqichda ularni jumlalar ichida qo'llashni mashq qildiradi[2].

3–bosqichda ularni erkin nutq vaziyatida qo'llashni mashq qildiradi..

Yangi leksikani tushuntirish an'anaviy o'kitish metodikasida uning shaklini o'rganishdan boshlanadi. So'zni shakli deganda uning ko'rinishi, yozilishi, o'qilishi, talaffuz qilinishi tushuniladi. Yangi so'zning o'qilishi, yozilishi qo'yidagicha o'rgatiladi:

1)agar so'zdagi harf birikmasining o'qilish qoidasi tanish bo'lsa, notanish yangi so'zlarni o'quvchining o'ziga o'qitish orqali;

2) taqlid qilib o'qitish yoki talaffuz qildirish;

3) agar notanish yangi so'zda o'rganilmagan harf, harf birikmasi bo'lsa, o'rgatib, so'ng so'zni o'quvchining o'ziga o'qitish orqali;

4) o'xshashligi bo'yicha o'qitish;

5) qisman o'qilish belgilarini berish orqali;

6) o'qituvchining doskadagi yozuviga o'xshatib yozdirish orqali.

Tahlil va natijalar. Bunda asosan oldin yaxshi o'quvchi o'qiydi yoki talaffuz qiladi, qolgan o'quvchilar uni jo'r bo'lib takrorlaydilar (5-6- sinflarda), keyin yana o'qimagan, talaffuz qilmaganlarga yakka o'qitiladi, talaffuz qildiriladi. O'qitiladigan yangi so'zlarni kartochkaga rangli yozib ko'rsatish, o'qitish o'quvchida katta qiziqsh uyg'otadi. Navbatdagi bosqichda so'z ma'nosini (mazmunini) ochish yo'llari o'rgatiladi. Bu asosan ikki usulda[3]:

a) Tarjima orqali tushuntirish;

b) Tarjimasiz tushuntirish orqali amalga oshiriladi.

a) Yangi so'zni tarjima orqali tushuntirish 3 usulda tashkil qilinadi:

1-usul: chet tilicha so'zning ma'nosiga mos keladigan asosiy ma'nosini, yoki mos keladigan ekvivalentini to'g'ridan-to'g'ri ona tilida og'zaki berish yoki doskada tarjimasini yozib qo'yish[14];

2- usul: so'zning ikkita ma'nosini berish;

3-usul: tarjima – izoh, orqali so'z manosini ochish. Odatda chet tilicha so'zning ma'nosini ona tilidagi so'z ma'nosidan tor yoki keng bo'lsa, to'liq ma'noga mos kelmasa, ona tilida izoh beriladi.Bu usul zaruriyat tug'ilganda, sinfda o'quvchi ko'p bo'lganda, so'z ma'nosini

tarjimasiz ochish mumkin bo‘limganda, ma’nosi ochiladigan so‘z ko‘p bo‘lib, vaqt kam bo‘lganda qo‘llaniladi.

b) Tarjimasiz tushuntirish: Bunda til, nutq ko‘rgazmasidan keng foydalaniladi.

Bu usulni qo‘llash so‘z ma’nosini chet tili tilining o‘z vositalari orqali ochishdir. Bunda chet tilicha kontekstdan, nutq vaziyatidan, so‘z yasovchi qo‘shimchalardan, so‘zning kelib chiqishini tahlil qilishdan, qo‘shimchalardan, sinonim, antonimlardan foydalanib o‘quvchilarining o‘zlariga so‘zning ma’nosini fahmlab topishdan, baynalmilal so‘zлarni taniy

olishliklaridan keng foydalaniladi. O‘qituvchi tarjimasiz metodni ishlatishdan oldin, albatta o‘quvchilarga «Tinglang, o‘qing, fahmlab so‘zning ma’nosini toping, tushuning» kabi topshiriqlar berib, ularning diqqatini tortadi. Bu usulning ham bir necha turlari mavjud[15]:

1) So‘z ma’nosini ochish predmetni yoki rasmni, harakatni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Masalan: o‘qituvchi qalamni ko‘rsatib, uning nomini jumlalar ichida aytib takrorlaydi. Bunda o‘qituvchi mumkin qadar o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan so‘z va jumlalardan foydalanishi lozim;

2) So‘z ma’nosini o‘qituvchining yuz ko‘rinishi, imo-ishorasi, harakati orqali fahmlab toptirish. Masalan, asseyez-vouse deb o‘qituvchi qo‘lini pastga tushirishi, levez-vouse deb qo‘lini yuqoriga ko‘tarishi, je frappe la table deb stolni taqillatishi mumkin;

3) So‘z ma’nosini chet tilicha izohdan fahmlab toptiriladi. Masalan: la cuisin - c‘est la chambre ou maman prepare le dîner, l’annivairsaire - c‘est le jour de la naissance[4];

4) So‘zning ma’nosini kontekstdan fahmlab toptirish;

5) So‘z yasash qo‘shimchalari yordamida yangi so‘z ma’nosini topish. Bu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan so‘zlardan foydalanishi lozim.

Masalan, o‘quvchilar l‘ycole co‘zini avvaldan bilishlari hisobga olinib un ycolier, une ycoliire so‘zlarini so‘z yasovchi qo‘shimchalari orqali yangi ma’no ifodalovchi ot yasalaganligini fahmlab oladilar. Bu o‘rinda o‘qituvchi «O‘ylang-chi, siz bilgan negzdan qanday ma’no ifodalovchi ot yasalgan» deb o‘quvchilarni fikrlashga yo‘llaydi[16];

6) Sinonim, antonimlardan foydalanish orqali yangi so‘z ma’nosini ochish. Masalan, o‘quvchilar la chambre so‘zini avvaldan biladilar, bugun siz la piice so‘zinining ma’nosini ochmoqchisiz. Buning uchun o‘qituvchi «C‘est la chambre de Nicole - c‘est la piice de Nicole» jumlalarini aytib, har ikkala so‘z bir xil ma’no anglatishini ko‘rsatadi;

7) Yangi so‘z ma’nosini vaziyatlari orqali ham ochilishi mumkin. Nutq vaziyati bitta gapdan yoki bir necha gapdan iborat bo‘lishi mumkin. Agar biz so‘zni vaziyatga mos holatda, jarayonida ishlatsak, unda biz uni nutq vaziyatida qo‘llagan bo‘lamiz. Masalan, fermer fe‘lining ma’nosini quyidagi nutq vaziyatida ochish mumkin: Aujourd’hui il fait trys froid. Il faut fermer la fenetre. So‘z ma’nosini ochishda ko‘proq tarjimasiz usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yangi so‘zning ma’nosini ochishda qaysi usuldan

foydalinish so‘zning hususiyatiga, vaqtga bog‘liqdir. Ikkala usulning ham o‘ziga yarasha ijobiy va salbiy tomonlari bor. Tarjima qilish orqali yangi leksika ma’nosini ochishning quyidagi ijobiy tomonlari mavjud: 1) kam vaqt sarflanadi; 2)o‘quvchilarda nutq malakalarini rivojlantirishga ko‘p vaqt qoladi. Salbiy tomonlari: 1)o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi; 2) ayrim so‘zlarning to‘liq ma’nosini tarjima orqali berish mumkin emas, chunki chet tili tilidagi so‘zning ma’nosini o‘zbek tilidagi ma’noga qaraganda kengroq yoki torroq bo‘lishi mumkin[17]. Yangi leksika ma’nosini ochishda tarjimasiz usuldan foydalishning quyidagi afzalliklari bor:

- 1) o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘ylashga o‘rgatadi;
- 2) o‘quvchilar doim chet tili muhitini sezib turadilar. Bu chet tilicha gapishtirsga rag‘batlantiradi;
- 3) chet tili tilidagi so‘z ma’nosini to‘liq yoritish mumkin;
- 4) yangi leksika bilan birga o‘quvchilar gap tuzilishni, modellarini o‘rganadilar;
- 5) turli xil ko‘rgazmalarni qo‘llash o‘quvchilarni chetz tili darsiga qiziqtiradi, rag‘batlantiradi;
- 6) bu usul orqali yangi leksika ma’nosini ochganda o‘quvchilar predmetlarni, narsalarni ko‘rib, sezib, ongli tushunadilar;
- 7) o‘quvchi o‘z nutqini doimiy rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- 8) o‘quvchilar yangi so‘z ma’nosini ochish jarayonida leksikani qo‘llanilishini ko‘radilar, o‘qiydilar, o‘zlashtiradilar[5].

Bu usulning kamchiliklari: 1) ko‘p vaqt ketadi; 2) o‘qituvchi o‘zi ko‘p tayyorlanishi, ishlashi kerak.

Yangi so‘z kiritilgan, tanishtirilgandan so‘ng o‘zlashtirish, mustahkamlash mashqlari bajariladi. Mashqlar og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Yangi so‘zni o‘zlashtirish deganda so‘zni xotirada saqlay olish, kerakli joyda ishlati bilish, qo‘llay olish tushuniladi. So‘zlarni amalda doim qo‘llab turish – so‘zlarni yaxshi o‘zlashtirishning asosidir. So‘zlarni o‘zlashtirishda yodlash eng muhim ahamiyatga ega[18]. Ko‘pincha o‘zlashtirishda: umumiy mashqlar – bunda so‘z ham, modellar ham o‘zlashtiriladi. Bunga: 1) taniy olish; 2) takrorlash, taqlid qilish; 3) o‘rganilgan so‘zni amalda qo‘llash (stol ustidagi predmet yoki rasmlar ichidan talaffuz qilingan so‘zni topib ko‘rsatish kabi); 4) o‘qituvchi savoliga o‘quvchi javobi; 5) o‘quvchilarning bir-birlari bilan savol-javob qilishi; 6) berilgan so‘zni gapda qo‘llash; 7) o‘qituvchi taklif qilgan nutq vaziyati ichida yangi so‘zni qo‘llash mashqlarini kiritish mumkin. So‘zlar yozuv, eshituv va o‘qish orqali o‘zlashtiriladi. Buning uchun maxsus mashqlar qo‘llaniladi.

Xorijiy tildagi so‘z, jumla eshituv, ko‘rish va nutq organlarining harakati natijasida sodir bo‘ladigan tovushlar yig‘indisi orqali anglanadi. Demak, tovush va tovushlar yig‘indisi - so‘zlar, jumlalar, artikulyatsiya va grafik timsollarda o‘z aksini topadi. Talaffuzga

o'rgatishda bu uchala komponent kompleks ravishda ishga tushirilishi kerak. Talaffuzga o'rgatishda o'quvchining to'g'ri eshitish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. To'g'ri eshitish qobiliyati rivojlanmagan o'quvchilar ona tilimizda uchraydigan tovush va jumlalarni talaffuz qilishda qiynaladilar[6]. Ular uchun tovushlarni maxsus differentsiyalashtirib o'rgatuvchi mashqlar tashkil qilinadi. Demak, bu o'rinda gap o'quvchilarining eshituv-talaffuz malakalarini shakllantirish haqida borish lozim. Eshituv-talaffuz malakalari chet tili o'qitishning bиринчи yilidayоq shakllantirila boshlanadi va bu malakalar bosqichma-bosqich takomillashtirilib boriladi[19]. Darslarga kiritilgan leksik-grammatik materiallar bilan kompleks tashkil qilingan talaffuz materiali ana shu printsip orqali sinflararo taqsimlangan. Boshlang'ich sinfda (5-sinf) talaffuzga o'rgatish har ikkala tilida bir xil yoziladigan, bir xil talaffuz qilinadigan tovushlar va shunga oid leksik materialdan boshlanadi. Asta-sekinlik bilan ona tilida mavjud bo'limgan tovushlar, fonetik hodisalar o'rgatila boshlanadi[28]. Tillararo fonetik interferentsiyaning salbiy oqibatlarni oldini olish uchun qiyin tovushlarni akustik, artikulyatsion jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bunday interferentsiya burunlashgan tovushlarni, yarim unlilarni, liaison, enchainement, elision hodisalarini o'rgatishda, ochiq va yopiq, qisqa va cho'ziq unlilarni farqlashda, harfning so'zdagi holatiga ko'ra turli tovushlarni ifodalashni o'rgatishda, so'z oxirida o'qiladigan va o'qilmaydigan undoshlarni o'rgatishda sodir bo'lishi mumkin[20].

Talaffuzga o'rgatish, tovushlar talaffuziga o'rgatish va nutq ohangiga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Tovushlar talaffuzi yakka holda, so'z ichida va jumla ichida o'rganiladi. Buning uchun tovushni, talaffuzni, ohangni o'rgatadigan maxsus nutq namunalaridan (grammatik strukturalar, model gaplardan) foydalaniladi. Nutq ohangiga (intonatsiyaga) o'rgatishda tasdiq, inkor, so'roq gap ohangiga o'rgatish ko'zda tutiladi. Nutq ohanglari maxsus nutq namunalari orqali avtomatlashtiriladi. Fonetik minimum 35ta tovushni, nutq oqimi ohagini, liaison, enchainement, elision hodisalarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi[21].

Talaffuzga o'rgatish yuqori sinflarda ifodali o'qish, she'rlar aytish, gapirish orqali takomillashtiriladi. Maktab dasturini tamomlagan o'quvchilardan o'z nutqini fonetik jihatdan to'g'ri rasmiylashtira olish, eshitgan jumlalarni to'g'ri idrok eta olish talab qilinadi. 2.Talaffuzga o'rgatish printsiplari. har qanday soxaga o'rgatishning o'ziga yarasha qonun-qoidalari bo'lganidek, talaffuzga o'rgatishda ham o'qituvchi ma'lum qonun-qoidalarga rioya qiladi. Bu qoidalarga rioya qilinishi ta'lim jarayoning samaradorligini ta'minlaydi. Ular quyidagilardan iborat (№25 slayd namoyish qilinadi):

1.Talaffuzga o'rgatishda ona tilida shakllangan talaffuz malakalaridan samarali foydalanish. Metodik adabiyotlarda bu hodisa «malakalarni ko'chirish» deb ataladi. Shu printsip ayrim tovushlarning taqlidiy talaffuzini shakllantirishda, ona tilidagi va chet tili tilidagi muayyan bir tovushni talaffuzdagi farqlarni aniqlashda, taqqoslashda foydalaniladi[22];

2.Talaffuzga o'rgatishda barcha sezgi organlarni kompleks ishga tushishini ta'minlash[7]. Bu printsip o'quvchidan tovushni eshitishni, uning grafik ifodalanishini ko'rishni, o'z nutq organlarining holatini ko'rgan holda muayyan tovushni, so'zni, jumlanı o'zlashtirishni ko'zda tutadi;

3.O'rganiladigan fonetik materialning o'ziga xos husisiyatlarni hisobga olib, o'rgatishni eng samarali usullaridan tanlash. Bu o'rinda nafaqat sezgi organlariga kompleks ta'sir, balki o'quvchi faoliyatini samarali tashkil qilish imkonini beradigan, taqlidiy-taxminiy, differentsiyalashtiruvchi mashqlardan foydalanish lozim bo'ladi;

4.Talaffuzga o'rgatishda ta'limning texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish. Bu o'rinda lingafon xonalarining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. O'quvchi o'z talaffuzidagi xatoni o'zi eshitib topsagina, bunday xato tezroq bartaraf qilinadi. Shu maqsadda pauzali mashqlardan tashkil qilingan fonogrammalar, gramplastinkalar, vidiogrammalardan foydalanish talaffuz malakalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir qiladi. Tovushlar taqdimotida jadvallardan, rasmlardan, kartochkalardan, ko'zgillardan foydalanish yaxshi natija beradi[23];

5.Talaffuzga o'rgatishni gapirishga, eshitib tushunishga, o'qish va yozishga o'rganish bilan kompleks tashkil qilish.

1.Nutq faoliyati turlariga o'rgatishda grammatic ko'nikma va malakalar shakllantirishning ahamiyati. So'z shaklini anglash, uni boshqa so'zlar bilan biriktirib tugal fikr anglatadigan gaplar yasash, shuningdek, fikrni tinglab va o'qib tushunish, fikrni yozma bayon qilish o'rganilgan tilning grammatic tizimi to'g'risida zaruriy bilim va malakalarini egallahni talab qiladi. Bu boradagi bilimlar o'zlashtirilmasdan chet tilida gapirish, eshitib va o'qib tushunish mumkin emas. Metodik adabiyotlarda bu jarayon Grammatic mexanizmni egallah, o'zlashtirish, grammatic malakalar shakllantirish, bilimlarni egallah, grammatic harakatni o'zlashtirish kabi ko'plab atamalar bilan ataladiki, nazarimizda ularning barchasini o'rniga birgina Grammatic ko'nikma va malakalarini shakllantirish atamasini ishlatish maqsadga muofiq bo'ladi. Grammatic ko'nikma va malakalarini shakllantirish Grammatic vositalardan og'zaki va yozma nutq jarayonida erkin foydalana olishni, shuningdek, eshitilgan va o'qilgan nutqdagi grammatic belgilarni to'g'ri farqlay olish darajasini anglatadi. An'anaviy o'qitish metodikasida grammatic ko'nikma va malakalarini shakllantirishning quyidagi to'rt bosqichi ta'kidlangan (№29 slayd namoyish qilinadi)[24]:

1.Grammatic materialning taqdimot (tushuntirish) bosqichi;

2.Uni og'zaki nutqda qo'llab, dastlabki grammatic ko'nikmalarni shakllantirish bosqichi. Bu bosqichda mashqlar orqali dastlabki grammatic amallar bajariladi;

3.Shakllangan dastlabki grammatic ko'nikmalarni nutq faoliyatining boshqa turlarida (gapirish, eshitib va o'qib tushunish , fikrni yozma bayon qilish) qo'llashni mashq qilish va bu jarayonda ko'nikmalarni malakalarga aylantirish bosqichi[8];

4. Grammatik malakalarni Muloqot jarayonida erkin qo'llash bosqichi hozirgi zamon chet tili o'qitish metodikasida grammatik ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlashda ham uch uch xil yondoshuvni ko'rish mumkin: 1.an'anaviy yondoshuv, 2.aralash yondoshuv, 3. kommunikativ yondoshuv. Grammatik ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlashning umumiy printsiplari leksik malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash bilan bir xil ekanligini ta'kidlaganimiz holda an'anaviy yondoshuvning o'ziga xos hususiyatlari kommunikativ yondoshuvda ham juda ko'p o'rnlarda ijobiy foydalanishini taqozo qiladi[25]. Chet tiliga o'rgatishdan asosiy maqsad o'quvchilarda grammatik ko'nikmalar va malakalarni kommunikativ (nutq) malakalariga aylantirish ekan buning uchun muayyan metodik printsiplarga rioya qilingan holda, turlituman mashqlar, og'zaki va yozma shakllarda uyushtiriladigan mustaqil ishlar bajarish ko'zda tutiladi.
2. Grammatik malakalarni shakllantirish printsiplari. Hozirgi zamon chet tili o'qitish metodikasida grammatikaga o'rgatish, Grammatik ko'nikma va malakalarni shakllantirish quyidagi umumiy printsiplarga binoan tashkil qilinadi (№30 slayd namoyish qilinadi):
1. Grammatikaga o'rgatishning Muloqotga o'rgatish bilan bog'liqligi printsipi. Bu printsip faqat grammatik qoidani o'zlashtirishni emas, undan kommunikativ vaziyatlarda foydalanish zaruriyatini, o'quvchilarda lingvistik va kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishni ham ko'zda tutadi;
  2. Grammatik materialni kommunikativ topshiriq ichida nutq vaziyatlarida o'rgatish printsipi. Nutq vaziyatlari o'rganilgan yangi grammatik materialni og'zaki nutqga ko'chirishning, dastlabki grammatik va nutq ko'nikmalari shakllantirishning muhim omili vazifasini bajaradi;
  3. Grammatik ko'nikma va malakalarni avval qoidani o'rgatish, keyin bosqichma-bosqich nutq(muloqat) ko'nikma va malakalariga aylantirish printsipi;
  4. Grammatik materialni funktional o'rgatish printsipi. Bu printsipdan grammatik ko'nikma va malakalarni mustahkamlash bosqichida turli xil rolli o'yinlar uyushtirish jarayonida foydalaniladi[26];
  5. Grammatik materialni grammatik strukturalar tarkibida o'rgatish printsipi. Bu printsip nutq vaziyatlariga mos keluvchi, o'quvchining kundalik turmush sharoitida eng ko'p ishlatiladigan nutq namunalarini o'zlashtirib olishni ko'zda tutadi;
  6. Grammatik materialni ona tili materiali bilan qiyoslab, ongli o'zlashtirish printsipi. Bu jarayonda ona tilidan egallangan grammatik ko'nikma va malakalarning chet tili grammatik materialini o'rganishga ijobiy ta'siri namoyon bo'ladi;
  7. Grammatik materialni differentsiyalashtirib o'rgatish printsipi. Bu printsip o'rganilishi qiyin til materialini o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirib, turlichay

taqdimot o'tkazishni, bajariladigan mashq va amaliy ishlarni reproduktiv nutq uchun alohida, retseptiv nutq uchun alohida tashkil qilishni ko'zda tutadi[9].

3.Grammatik ko'nikma va malakalarning shakllantirish usullari. Grammatik materialini maxsus qoidalarni o'rganmasdan turib ham o'rgatish implitsit yondoshuv deb ataladi Bu yondoshuv kommunikativ yondoshuv printsiplariga mos keladi.. Grammatikaga o'rgatishni maxsus qoidalari orqali tashkil qilish esa eksplitsit yondoshuv (chet tilicha «expliquer-tushuntirmoq» fe'lidan) deyiladi.Bu yondoshuv grammatik qoidani o'rgatishda odatdag'i, an'vanaviy audio-vizual metod va usullardan foydalanishni ko'zda tutadi[27]. Shunday qilib, grammatik material bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish ma'lum ijobiy va salbiy tomonlari bilan xarakterlanadigan ikki xil yondoshuv, usul bilan amalgalashgan usulda amalga oshiriladi.

a) Grammatik malakalarning shakllantirishning eksplitsit(an'anaviy) yondoshuvi ikki usulda amalgalashgan usulda amalga oshiriladi: 1) deduktiv usul; 2) induktiv usul. Chet tili grammatikasiga o'rgatishning eng ommalashgan usuli deduktiv (deduktsiya - ko'rilgan va eshitilgan axborotlardan umumiyligida xulosaga kelish) usul bo'lib, ta'lim jarayonida qoidadan amaliy xulosalar chiharish ma'nosida ishlataladi. Deduktiv usulda grammatik malkalarni shakllantirish yuqorida keltirilgan bosqichlarda ishlarni tashkil qilish orqali uyushtiriladi. Masalan:

1-bosqich. O'quvchilarga dastlab grammatik qoida tushuntiriladi: quyidagi sifatlar mujskoy rodda ikki shaklga ega: Beau-bel, nouveau- nouvel, vieux-vieil, fou-foul, mou-mol.

Oxiri unli harf bilan tugagan sifatlar undosh harf bilan boshlanuvchi otlar oldidan, oxiri undosh harf bilan tugagan sifatlar esa unli harf bilan, yoki h harfi bilan boshlanuvchi otlar oldidan ishlataladi.

2-bosqich. Nuqtalar o'rniga qoidaga binoan yuqorida berilgan sifatlardan keraklisini qo'ying: un... enfant, un ....edifice, un... plante, un.... livre, un... espoir, un visage ....

3-bosqich. Grammatik materialni faol ishlatalishiga yo'naltirilgan chet tili tilidan ona tiliga, ona tilidan chet tili tiliga tarjima mashqi bajariladi.

4-bosqich. O'zlashtirilgan grammatik materialni nutq vaziyatlarida qo'llash tashkil qilinadi[10].

Xulosa va takliflar. O'zbek olimi J.Jalolov deduktiv usulning quyidagi ijobiy tomonlarini ko'rsatadi:

1. Bu usulda ishlashda asosan onglilik printsipiga tayaniladi va bu grammatik materialni mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi;
2. Bu usulda tashkil qilinadigan ishlar o'quvchilarning o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil qilish imkoniyatini beradi;
3. Bu usuldan o'quvchilarning uyda, o'quv laboratoriyalarda mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish mumkin.

Deduktiv usulning o'ziga xos salbiy tomonlari ham mavjud. Bu usulda o'quvchilarga bilimlar tayyor holda taqdim qilinadi va bu narsa ko'pincha o'quvchilarni aqliy faollikkiga

rahbatlantirmasligi, ularni passiv tinglovchilarga aylantirib qo'yishi mumkin. Shuningdek, mavzu bo'yicha tashkil qilinadigan Muloqot tabiiy nutq vaziyatida sodir bo'lmaganligi uchun grammatik va nutq malakalarining shakllanish darajasi ancha sust bo'ladi.

Eksplitsit yondoshuvning ikkinchi shakli induktiv (chet tilicha) «indiquer» -«ko'rsatmoq» usul bo'lib, u eshitish, o'qish jarayonida duch kelingan grammatik hodisalarni tahlil qilib, ona tili bilan va avval o'r ganilgan grammatik materiallar bilan qiyoslab, taqqoslab, muayyan grammatik qoidalarni intuitiv fahmlashni, shu orqali to'g'ri xulosalarga kelishni ko'zda tutadi. Masalan, o'quvchilar matndan grammatik formalarni topadilar, kontekst yordamida uni tushunishga urinadilar[11]. Bunday ishni chet tilidagimatnni uning ona tilidagi tarjimasiga qiyoslash orqali ham tashkil qilish mumkin. Grammatik materialni induktiv tushunishni tashkil qilish og'zaki nutqdagi zamonlarni farqlash, otlarning, sifatlarning birlik va ko'plik formalarini, rodlarini farqlash, sifat va ravish darajalarini farqlash bo'yicha tashkil qilinadigan mashqlar orqali ham tashkil qilish mumkin. Induktiv usulda shakllantirilgan grammatik ko'nikma va malakalar darsning yangi grammatik materialni tushuntirish va mustahkamlash bosqichida yana bir bor takrorlanadi. Shundan so'ng yangi grammatik materialni mustahkamlash bo'yicha mashqlar seriyasi bajariladi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarnoma, 69.
2. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A/Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).
3. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
4. Hamroyev, A. (2022). DESIGN ACTIVITIES OF THE TEACHER IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 324-332.
5. Hamroyev, A. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 35-37.
6. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
7. Hamroyev, A. R. Z. (2021). Modeling Teacher Activities when Designing Creative Activities of Students. International Journal of Culture and Modernity, 11, 181-184.
8. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 168-174.

9. Javohir Gaybullo og, Z., & Sayfiddinovich, X. R. (2021). Boshlang'Ich Sinf O'Qish Darslari Samaradorligini Oshirishda Qo'Llaniladigan Interfaol Metodlar. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 93-104.
10. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 285-296.
11. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
12. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 549-558.
13. Ro'ziqu洛ovich, H. A. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYADAN FOYDALANISH. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 344-348.
14. Ro'ziqu洛ovich, H. A., & Zahro, H. (2022, April). UCHINCHI RENESSANSNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH. In E Conference Zone (pp. 104-106).
15. Rustam KHURRAMOV. (2022). DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS OF STUDENTS THROUGH INTEGRATION-BASED PRIMARY CLASSES. European Scholar Journal, 3(8), 32-37.
16. Rustam XURRAMOV. (2022). BOSHLANGICH SINFDA TA'RIBIY VAZIFALAR O'QUVCHILARNING EVRISTIK KONAKLATLARINI OLIB ETISHUVCHI QURILISH. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi , 13 , 22-25.
17. Salomova, G. A., & Khurramov, R. S. (2021). ABBREVIATION IN ENGLISH, UZBEK, RUSSIAN LANGUAGES DIFFERENT STRUCTURAL TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(12), 646-654.
18. Sayfiddinovich, K. R. (2021). Didactic Bases of Ethnopedagogical Training of the Future Teacher in the Educational Field of University. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(11), 237-239.
19. Sayfiddinovich, K. R. (2021). The Role of using Interactive Methods in Primary School Lessons. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 114-123.
20. Sayfiddinovich, X. R., & Javohir Gaybullo og, Z. (2021). Boshlanganchi Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Etnopedagogik Asoslari. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 62-71.
21. Xurramov, R. S. (2021). Rivojlangan O'zbekistonda Boshlang'ich Sinf O'qituvchilarini Etnopedagogik Qadriyatlarni Ta'lif Va Tarbiya Jarayonida Rivojlantirish. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 105-113.

- 
- 22.Zahro, H., & Ro'ziqulovich, N. A. (2022, April). YOSHLAR MUAMMOSINI HAL ETISH OMILLARI VA ULARNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI VA XUSUSIYATI. In E Conference Zone (pp. 175-177).
- 23.Саломова, Г. А., & Хуррамов, Р. С. (2021). Структура, Семантика И Информационный Потенциал Аббревиатур. Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали, 1(6), 179-186.
- 24.Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
- 25.Хуррамов, Р. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ЭВРИСТИК ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИ. Conferencea, 80-84.
- 26.Хуррамов, Р. (2022, August). ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЭВРИСТИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ. In E Conference Zone (pp. 138-142).
- 27.Хамроев, А. Р. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 294-305.
- 28.Хамроев, Р. (2014). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.